

YANGI O'ZBEKISTON: INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM

CONFERENCES.UZ 2023

DAVRIYLI: 2018-2023



Карл Бенц
1885 год
Германия

Мощность:
0,9 л.с.

BIRINCHI BENZ AVTOMOBILI

Вид топлива:
бензин

Масса:
265 кг


Двигатель:
0,954 л



Тип кузова:
мотоколяска
без дверей
Число мест - 2

Компоновка:
переднемоторная,
заднеприводная

Колёсная
формула:
4x2



Ширина: 1200 мм

Высота:
1400 мм

Колея задняя:
1190 мм

Колёсная база:
1450 мм

Длина: 2400 мм




TOSHKENT SHAHAR, AMIR
TEMUR KO'CHASI, PR.1, 2-UY.



+998 97 420 88 81
+998 94 404 00 00



WWW.TAQIQOT.UZ
WWW.CONFERENCES.UZ



MART
№50

**ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН:
ИННОВАЦИЯ, ФАН
ВА ТАЪЛИМ
10-ҚИСМ**

**НОВЫЙ УЗБЕКИСТАН:
ИННОВАЦИИ, НАУКА
И ОБРАЗОВАНИЕ
ЧАСТЬ-10**

**NEW UZBEKISTAN:
INNOVATION, SCIENCE
AND EDUCATION
PART-10**

ТОШКЕНТ-2023



УУК 001 (062)
КБК 72я43

“Янги Ўзбекистон: Инновация, фан ва таълим” [Тошкент; 2023]

“Янги Ўзбекистон: Инновация, фан ва таълим” мавзусидаги республика 50-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 31 март 2023 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2023. - 46 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн даврий анжуманлар «Харакатлар стратегиясидан – Тараққиёт стратегияси сари» тамойилига асосан ишлаб чиқилган етти устувор йўналишдан иборат 2022 – 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси мувофик;– илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишланган.

Ушбу Республика илмий анжуманлари таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илғор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истикболдаги режалари тахтил қилинган конференцияси.

Масъул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

1. Ҳуқуқий тадқиқотлар йўналиши

Профессор в.б., ю.ф.н. Юсувалиева Рахима (Жахон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

2. Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна (Фарғона давлат университети)

3. Тарих саҳифаларидаги изланишлар

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

4. Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

5. Давлат бошқаруви

Доцент Шакирова Шоҳида Юсуповна «Тараққиёт стратегияси» маркази муҳаррири

6. Журналистика

Тошбоева Барнохон Одилжоновна (Андижон давлат университети)

7. Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар

Самигова Умида Ҳамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)



8.Адабиёт

PhD Абдумажидова Дилдора Рахматуллаевна (Тошкент Молия институти)

9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни

Phd Вохидова Мехри Хасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

10.Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар

Турсунназарова Эльвира Тахировна Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети Хорижий тиллар факультети ўқув ишлари бўйича декан ўринбосари

11.Жисмоний тарбия ва спорт

Усмонова Дилфузахон Иброхимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши

Бобохонов Олтибой Рахмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

14.Тасвирий санъат ва дизайн

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

15.Муסיқа ва ҳаёт

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар

Доцент Нормирзаев Абдуқайом Раҳимбердиевич (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

17.Физика-математика фанлари ютуқлари

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманган муҳандислик-технология институти)

18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар

Т.ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

19.Фармацевтика

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

20.Ветеринария

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

21.Кимё фанлари ютуқлари

Рахмонова Доно Қаххоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари

Проф. Хамидов Муҳаммадхон Ҳамидович «ТИИМСХ»

24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар

Phd доцент Қаҳҳоров Ўктам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш муҳандислари институти)

25.География

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг ҳаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдир.

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шаҳрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

ПЕДАГОГИКА ВА ПСИХОЛОГИЯ СОҲАЛАРИДАГИ
ИННОВАЦИЯЛАР

1. M.A Azizov EKOLOGIK MADANIYATNI, TA'LIM-TARBIYA JARAYONIDA SAMARADORLIKNI OSHIRISHDA SPORT TURIZMI TADBIRLARINING AHAMIYATI.....	7
2. Norboyeva Afro'za, Nurmatov Yorqin SHIZOFRENIYADAGI GALLYUTSINATSIYALAR XUSUSIYATLARI VA TURLARI	11
3. Abdumalikov Mirzo Mahmud o'g'li HARBIY-VATANPARVARLIK TARBIYASINING METODOLOGIK ASOSLARI.....	14
4. Karabaeva Dilbar Isroilovna ESHITISHIDA NUQSONI BO'LGAN BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING NUTQINI SHAKLLANTIRISH TEXNOLOGIYASI.....	16
5. Dilshodbekov Sh.D. MUHANDISLIK GRAFIKASI TA'LIMIGA KONSEPTUAL YONDASHUV	18
6. G.Tillaboyeva ALISHER NAVOIYNING PEDAGOGIK QARASHLARI.....	20
7. Karabaeva Dilbar Isroilovna TECHNOLOGY FOR IMPROVING SPEECH OF ELEMENTARY SCHOOL PUPILS WHITH HEARING IMPAIRMENT.....	22
8. Xusan Abduraximovich Umarov YOSHLARNI TARBIYALASHDA MEHNAT TA'LIMINING O'RNI VA MAZMUNI	24
9. Umarova Zaxro Abduraxim qizi RAQAMLI TA'LIM SHAROITIDA TALABALAR MUSTAQIL TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISHDA MEDIARESURSLARNING ROLI	25
10. Ягафарова Назилия Рафаиловна СЕМАНТИЧЕСКИЙ АСПЕКТ ИЗУЧЕНИЯ ИМЕН СУЩЕСТВИТЕЛЬНЫХ В ОБУЧЕ- НИИ РУССКОМУ ЯЗЫКУ КАК ИНОСТРАННОМУ.....	26
11. Abdumalikov Mirzo Mahmud o'g'li CHAQIRUVGA QADAR BOSHLANG'ICH TAYYORGARLIK DARS JARAYONIDA O'QUVCHILARNI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASH XUSUSIYATLARI	29
12. Umarova Fotima Abduraximovna O'QUVCHILARGA TEXNOLOGIYA FANIDA KIYIMLARNI LOYIHALASH VA MODELLASHTIRISH KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA DASTURIY VOSITALARNING DIDAKTIK IMKONIYATLARI.....	31
13. G'aybullayev G'olib G'ayrat o'g'li JAMIYATDA FAOL HUQUQIY XULQ-ATVORNI RIVOJLANTIRISH.....	32
14. G'iyosova Zebo Toshbo'lovna BO'LAJAK O'QITUVCHINING DIDAKTIK KOMPETENTLIGI MOHIYATI.....	34
15. Mamatqulova Umida Eshmirzayevna AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANGAN HOL- DA O'QUVCHILARDA MATEMATIKANI O'QITISHGA KOGNITIV QIZIQISHNI RIVOJLANTIRISH JIHATLARI.....	36
16. Rasulov G'iyosiddin Fayzulloyevich “TA'LIMNI TEXNOLOGIYALASHTIRISH ORQALI HARBIY TAYYORGARLIK SAMARADORLIGINI OSHIRISH”	38
17. Убайдуллаева Нигина, Нурматов Ёркин СПОСОБ И ПРИМЕНЕНИЯ ГЕШТАЛЬТ ТЕРАПИИ.....	39
18. Фахритдинова Мухсинахон, Научный руководитель: Нурматов Ёркин ПОЧЕМУ ОБИДА НА ОТЦА МОЖЕТ СПРОВОЦИРОВАТЬ ССОРЫ С МУЖЧИНОЙ?.....	42



ПЕДАГОГИКА ВА ПСИХОЛОГИЯ СОҲАЛАРИДАГИ ИННОВАЦИЯЛАР

ЕКОЛОГИК МАДАНИЙАТНИ, ТА’ЛИМ-ТАРБИЯ ЖАРAYONIDA SAMARADORLIKNI OSHIRISHDA SPORT TURIZMI TADBIRLARINING AHAMIYATI

M.A Azizov.

NamDU tadqiqotchisi

Email: azizovmaruf40@gmail.com.

Tel: +998999771112

ANNOTATSIYA: Dunyo miqyosida o‘quvchilarda ekologik madaniyatni rivojlantirish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Bu borada sport turizmi tadbirlarida o‘quvchilarda ekologik madaniyatni rivojlantirish ustida tizimli hamda maqsadga yo‘naltirilgan faoliyatni tashkil etish bugungi kunning dolzarb vazifasi bo‘lib qolmoqda. Mazkur maqola mamlakatimizda o‘quvchilarning sport turizmi tadbirlariga qiziqishlarini ortishi bilan birgalikda ekologik madaniyatni rivojlanishiga xizmat qiladi.

KALIT SO‘ZLAR: Sport turizmi tadbirlari, ekologik madaniyat, ekoaxloq, muvozanat mashqlari, sog‘lom turmush tarsi.

O‘zbekistonning Yangi Renesans bosqichida ma’naviy-axloqiy negizlari hisoblangan umuminsoniy qadriyatlarga sadoqatlilik, xalqimizning ma’naviy merosini mustahkamlash va shakllantirish, insonning o‘z imkoniyatlarini erkin ro‘yobga chiqarishi, vatanparvarlik kabilar pedagoglar madaniyatining asosini tashkil etadi. Bular maktablarining 7-9 sinflaridagi ta’lim-tarbiya jarayonida to‘liq o‘z ifodasini topishi zarur. Bu esa maktab o‘qituvchilari jumladan, jismoniy tarbiya va jismoniy madaniyat o‘qituvchilarining ma’naviy-axloqiy qiyofasi, ekologik ongi, ekologik madaniyati, ta’lim-tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishdagi say-harakati, ma’naviyati va o‘z sohasining yetuk bilimdoni bo‘lishiga bog‘liq.

O‘quvchilar o‘rtasida ommaviy jismoniy tarbiya va sport ishlarini tashkil qilish, “Sog‘lom avlod uchun” Davlat dasturini amalga oshirish hamda “AlpomiSh” va “Barchinoy” maxsus testlari talablarining mohiyatini o‘quvchilar ongiga singdirish hozirgi kunning dolzarb vazifasi hisoblanadi. Inson jismoniy sog‘lom va baquvvat bo‘lsa, hayot go‘zalliklarini idrok etadi, aql-zakovati yuksala boradi, atrof-muhitni ziyrak bo‘lib kuzatadi. Shu nuqtayi nazardan, insonning sog‘lom-baquvvat bo‘lishida sport turizmi muhim omil hisoblanadi. Demak, bu tarbiya ekoaxloqiy tarbiyaning asosini tashkil etadi.

Abdulla Avloniy ta’kidlaganidek: “Bir yerda turib qolgan ko‘lmak suv hech foydasiz deyilsa, harakatsiz odam ham ko‘lmak kabi, sharqirab oqqan suvning o‘zi go‘zal bo‘lishi bilan birga, dala-bog‘larni yashnatgani kabi, serharakat, jismoniy mashqlar bilan shug‘ullanadigan odamning ham o‘zi (jismonan) go‘zal, ham aqli go‘zal, ham odob-axloqi go‘zal bo‘ladi”. [1]

Sport turizmi insonni har tomonlama tetik, xushyor, qobiliyatli bo‘lib kamolga yetkazadiki, bunda ular donolar aytganidek, “go‘zallik tarbiyasi”ga aylanadi.

Tabiat qo‘ynida o‘quvchilarning harakatli mashqlar bilan shug‘ullanishi ularda nafasat his-tuyg‘usi, aqliy tushunchasini va estetik didini tarbiyalaydi. Xilma-xil, aniq, ifodali bajarilgan jismoniy mashqlar estetik kechinma, hislarni yuzaga keltiradi. Jismoniy mashqlarni bajarish jarayonida harakatlar maqsadining ham shakl, ham mazmun jihatidan bir-biriga mos kelishi esa uning go‘zalligini ta’minlaydi.

Jismoniy barkamollik tarbiya tizimida muhim o‘rinni egallaydi va boshqa tarbiya turlari bilan birga tatbiq etiladi. Jismoniy tarbiya o‘z oldiga qator vazifalarni qo‘yadi. Bu vazifalarni hal qilishda jismoniy tarbiya aqliy, estetik va mehnat tarbiyalari bilan hamkorlik qiladi. Insonning sog‘lom va barkamol o‘sishi turli omil va vositalarga bog‘liq. Ayniqsa, ekologik omillar: havo harorati, atmosfera bosimi, namlik, toza havo, shovqin va bonishqalardan o‘rinli foydalanish va ularning zararli oqibatlaridan o‘zini himoya qilishi kerak. [4]



O'qituvchi turizmga chiqayotgan har bir o'quvchining sog'ligini va jismoniy rivojlanganlik darajasini aniq bilishi kerak. Buning uchun o'qituvchi bolaning tibbiy ko'rik haqidagi ma'lumotlarini bilishi: uy sharoitlari bilan tanishishi, shuningdek, ota-onalar bilan shaxsiy aloqada bo'lishi lozim.

Ilmiy ma'lumotlarga qaraganda (D.N. Yarmunlik, V.V.Tyupa va boshqalar, F.Xo'jayev, T.Usmonxo'jayev, hafta mobaynida o'tkazilayotgan 2 soatlik jismoniy tarbiya darslari o'quvchilarning harakat faolligini 11 foizgina rivojlantira olishi mumkin. Bugungi kunda sog'lom deb maktabga qabul qilingan o'quvchilar o'qish davomida yana turli kasalliklarga chalinmoqdalar. Chunonshi, 40 foizdan ziyodrog'i asoratli, 63 foizdan ortiqrog'i qaddi-qomat rivojlanishida oqsamoqda, taxminan 12 foiz o'quvchi xafaqonlik kasalliklarga duchor bo'lmoqdalar.[2]

Mutaxassislarning tasdiqlashlarisha, kelajak avlodning sog'lom bo'lishi 50 foiz turmush tarzi, 50 foiz ijtimoiy va tabiiy sharoitlar, irsiy va shu singari omillarga bog'liq. O'sib kelayotgan yosh avlodning sog'lom o'sishi, asosan, jismoniy tarbiya va sport sohasida oshirilayotgan va shu soha xodimlarining olib borayotgan ishlariga bog'liqdir. Har bir sinfda o'z sinfdoshlaridan jismoniy tayyorgarligiga ko'ra ajralib turadigan o'quvchilar mavjud ulardan ba'zilar jismoniy mashqlarni bajarishda oqsaydilar, boshqalari esa aksincha, bunda yuqori natijalarni ko'rsatadilar.

Yu.M.Yunusovanning ta'kidlashicha, "Jismoniy tarbiya darsida bazi o'quvchilar do'stlari oldida jismonan zaifliklarini bildirib qo'ymasligi uchun ko'pincha tortinib turadilar, mashqlarni istar-istamas bajaradilar yoki ularni bajarishdan bo'sh tortadilar". Bunday paytlarda jismoniy tarbiya o'qituvchisi o'quvchilarga xotirjam ovozda dalda beradi, bazi mashqlarni bajarish shartini yengillashtiradi, ularning o'zlariga ishonmasliklari vaqtincha ekanligi, ular darsdan ta'shqari vaqtlarda qo'shimcha shug'ullansalar, o'z o'rtoqlariga yetib olishlari mumkinligini aytib, ularda umid va ishonch hosil qilishi kerak. Bunday o'quvchilar uchun o'qituvchi darsda hech qanday alohida sharoit yaratmaydi, ularga sinf diqqatini qaratmaydi, balki ular bilan yakkama-yakka ishlaydi.[7]

Shuningdek, yaxshi tayyorgarlikka ega bo'lgan o'quvchilar ham o'zlariga yakkama-yakka yondoshishga ehtiyoj sezadilar. Ular darsda barcha o'quvchilar bilan o'tkaziladigan mashqlarning osonligidan zerikadilar. Shuning uchun ularni betartib va xohlamay bajaradilar. Bunday paytlarda o'quvchilarga topshiriqlarni bajarishda talablarni kuchaytirish va mashqlarni tez-tez murakkablashtirib borish zarur. Bunday o'quvchilarning faolligini oshirish maqsadida, ularga o'z do'stlariga yordam berish vazifasini topshirish, ularni mashqlarni ko'rsatishga jalb qilish lozim.

Ko'pincha qat'iylik va botirlikni talab qiladigan sport turizmini ishonchsiz bajaradigan o'quvchilar uchrab turadi. Ko'proq muvozanat saqlash, balandlikdan tushish va balandlikka chiqishda shunday bo'ladi. Bularda o'z kuchlariga ishonch yo'qligi, sport turizmining qiyin ko'rinishi, sport turizmini muvaffaqiyatsiz bajarishdan qo'rqish bilan izohlanadi. Bu kamchilikni bartaraf etish uchun o'qituvchi, ehtiyot choralarni ko'rgan holda, sport turizmini osonlashtirib bajartirishi kerak. Masalan, muvozanat mashqlarini bajartirishda o'qituvchi suvda turgan bolaga yakkacho'pni pasaytirishi yoki yakkachop bo'ylab harakat qilayotganida uning qo'lidan uhlab turishi mumkin; balandlikka sakrahda plankani tushurishi yoki planka o'rnida rezina tortib qo'yishi mumkin. Odatda, bunday yordam ijobiy ta'sir ko'rsatadi va mashqni bajarishda katta samara beradi.

O'qituvchi o'quvchiga individual yondashganda mashqlar miqdori va takrorlash sonini cheklash, bajarish sharoitini yengillashtirishga darslarda shifokor tomonidan tavsiya etiladigan maxsus mashqlarni o'tkazish, bajarish texnikasi va miqdor ko'rsatkichlariga keraklicha e'tibor qaratishi lozim.[6]

O'quvchilarni sport turizmi, jarayoniga o'rgatishdan maqsad, bir tomondan ularning sog'ligini mustahkamlash bo'lsa, ikkinchi tomondan, materiallarining puxta o'zlashtirilishiga erishish, uchinchi, tabiat bilan muloqot qilish madaniyatini shakllantirishdir. Eng muhimi, tog' sharoitidagi sport turizmni ongli raviShda bajarishga tayyorlash. O'zbekiston hududida tog'li chegaralar ko'p, bunday sharoitda armiya safida xizmat qilish o'ziga xos xususiyatlarni talab etadi. Shu sababdan maktabdayoq tog'larda sport turizm uyushtirishni kuchaytirish zarur.

7-9 sinflarning jismoniy tarbiyadan Davlat ta'lim standartlari talablarida sport turizmidan foydalanishda ta'limning turli metodlari qo'llanilishiga alohida e'tibor qaratilgan. Turli metodlarning qo'llanilishi o'zaro chambarchas aloqadadir. O'qituvchi ularni turli birikmalarda qo'llab, jismoniy tarbiyaning to'laqonli jarayonini ta'minlaydi.

Metodlarni uch guruhga bo'lish mumkin:

a) og'zaki (tushuntirish, hikoya, suhbat, buyruq, topshiriq, ko'rsatma);



- b) ko‘rgazmali (bevosita ko‘rsatish, ta’sir ko‘rsatish ko‘rgazmali qurollardan foydalanish);
v) amaliy (mashqlar, musobaqalarga tayyorgarlik).

Har bir buyruq mashqni bajarish va tugallashga ishora hisoblanadi. Bajarish ko‘pincha sport turizmining ma’lum ritmini moslashtirib turuvchi sanoq jo‘rligida olib boriladi. Buyruq va sanoqda ohang ahamiyatga ega, uning yordamida buyruq ifodali, mayin yoki keskin, erkin bo‘lishi mumkin. [5]

O‘qituvchi tomonidan beriladigan buyruqlar shakl jihatidan yagona va ularning ijrosi qat’iy belgilangan, barcha o‘quvchilar uchun bir xil bo‘lishi kerak.

Sport turizmini bajarishda qo‘shimcha ta’sir ko‘rsatish metodlaridan o‘quvchilarni uyuShtirish uchun ham mahorat bilan foydalanish lozim. O‘rinli va to‘g‘ri berilgan buyruq o‘quvchilarga katta tashkiliy ta’sir ko‘rsatadi va ularni intizomga chaqiradi, atrof-muhitga nisbatan ongli munosabatda bo‘lishga undaydi.

O‘z vaqtida o‘rinli o‘tkazilgan sport turizmini yaxshiroq bajarishga yordam beradi. Ko‘rsatmalar qisqa, aniq harakat, ehtiyotkorlikka chorlaydigan, talabchan bo‘lishi kerak.

O‘quvchilarda sport turizmi haqida to‘g‘ri tasavvur hosil qildirish uchun ko‘pincha ko‘rgazmali qurollar, kino darslaridan foydalaniladi. Ko‘rgazmali qurollar rang-barang, sodda, qiziqarli bo‘lishi kerak. Bunday buyum nishonlar harakat texnikasini egallashga yordam beradi. Jismoniy mashqlar ta’limning asosiy vazifasi sifatida maydonga chiqib, shug‘ullanuvchilarda mustahkam harakatlanish ko‘nikmalarini shakllantirishdan iborat. Bu vazifani hal etish uchun o‘rganiladigan harakatlarni ko‘p marotaba takrorlash zaruriyati vujudga keladi.[3]

Sport turizmi, mashg‘ulotlarini bajarishda, qat’iy reglament asosida mashqlarni bajarish jismoniy ta’lim-tarbiya mazmunining barcha bosqichlarida amalga oshiriladi. Shu jihatdan olganda, biz sport turizmi jarayonlari ko‘nikmalarini shakllantirish va takomillashtirish metodlarini quyidagicha tasnifladik: (**qarang-1- rasm**).



1-rasm. Sport turizmlari tadbirlarida ekologik madaniyatni rivojlantirish texnologiyalari

Ushbu rasmdan ko‘rinib turibdiki, tabaqalashtirilgan ekosport turizm texnologiyalari sport turizmi amplitudasini to‘g‘ri tashkillashtirishni nazarda tutadi va sport turizmini o‘tkazishda barcha sinflardagi ta’lim uslublarining eng asosiysi sifatida qo‘llaniladi. U turizmining mohiyatini oshib beradi, o‘quvchilarda sport turizm haqida tasavvur hosil qiladi. Bunda alohida jismoniy sifatlarni shakllantirish uchun o‘qituvchi tushuntirish uslubidan foydalanadi. Tushuntirish qisqa, tushunarli, obrazli, o‘quvchilarning rivojlanish darajasiga mos bo‘lishi lozim. Tushuntirishlar paytida o‘quvchilar ko‘plab yangi so‘zlarni o‘rganadilar: “yonma - yon”, “oldinma - keyin” “qator bo‘lib”, “tekis turish”, “tizim bo‘lish”, “ekologik tropa (yo‘lak)”, “yog‘och to‘siq” va shu



singarilar. Umumlashtirilgan sport turizmlar metodi o'quvchilarni mashqlarning yangi turlari bilan tanishtirishda (sport hayotidan misollar) yagona syujetga birikadigan qator o'rganishda qo'llaniladi. Qo'shimcha ta'sir ko'rsatish metodlari esa, o'rganiladigan mavzuni yaxshi o'zlashtirish va mashqlarni sifatli bajarishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ismoilov A. T., Azizov M. A. The role of physical education and sport in emphasizing the spiritual and moral claims of students //экономика и социум. – 2019. – №. 9. – с. 6-7.
2. Азизов М. А. Формирование у учащихся культуры бережного отношения к природе в процессе организации и проведении походов //Молодой ученый. – 2012. – №. 3. – С. 339-342.
3. Бегалиев М. О., Азизов М. А. влияние соматической патологии на развитие личности человека //Неделя молодежной науки-2021. – 2021. – С. 421-422.
4. Juraev E. V., Azizov M. A. Importance of competition method in creating a healthy competitive environment for //экономика и социум. – 2020. – №. 1. – с. 46-47.
5. Azizov M. A. Sport turizmi jarayonida o'quvchilarda ekologik madaniyatni shakllantirishning pedagogik mexanizmlari //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2022. – T. 2. – №. 5. – С. 1209-1214.
6. Azizov M. Features of preparation of secondary school students for sports tourism //Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities. – 2022. – T. 12. – №. 2. – С. 256-260.
7. Ahmadkhanovich A. M. Pedagogical conditions for the formation of a culture of preserving nature of students during travel. – 2021.
8. Азизов М. А. Гигиена физической культуры-предмет, задачи и методы //Экономика и социум. – 2019. – №. 5. – С. 263-265.



SHIZOFRENIYADAGI GALLYUTSINATSIYALAR XUSUSIYATLARI VA TURLARI

Norboyeva Afro‘za

Toshkent "Oriental Universiteti"

2-kurs talabasi

Ilmiy rahbar:

Nurmatov Yorqin

Toshkent "Oriental universiteti"

“G‘arb tillari” kafedrası

katta o‘qituvchi

Annotatsiya: Gallyutsinatsiyalar - bu odamning atrofdagi haqiqatni yetarli darajada idrok etishiga to‘sqinlik qiladigan noto‘g‘ri yoki buzilgan tasvirlar. Ularning paydo bo‘lishining sababi charchoq, spirtli ichimliklar, giyohvand moddalar, nevrologik kasalliklar va boshqa omillar bo‘lishi mumkin. Ko‘pincha va uzoq vaqt davomida ular psixiatrik kasalliklarda namoyon bo‘ladi.

Аннотация: Галлюцинации – это ложные или искаженные образы, мешающие человеку адекватно воспринимать окружающую действительность. Причиной их появления может быть переутомление, алкоголь, наркотики, неврологические заболевания и другие факторы. Часто и длительно они проявляются при психических заболеваниях.

Abstract: Hallucinations are false or distorted images that prevent a person from adequately perceiving the surrounding reality. The cause of their appearance can be fatigue, alcohol, drugs, neurological diseases and other factors. Often and for a long time, they are manifested in psychiatric diseases.

Shizofreniya murakkab ruhiy kasallik bo‘lib, inson va fikrlashning hissiy-irodaviy fazilatlariga ta'sir qiladi. Ushbu patologiyaning ko‘plab shakllari mavjud - sust, paranoid, paroksizmal, katatonik va boshqalar. Ularning har biri o‘ziga xos belgilarga ega. Eng keng tarqalganlari aldanishlar va gallyutsinatsiyalardir. Biroq, ular shizofreniyaning har bir turi bilan sodir bo‘lmaydi. Faqat ular juda tez-tez sodir bo‘ladigan yoki uzoq vaqt davomida o‘tmagan hollarda, bemorda ruhiy kasalliklar mavjudligi tekshiriladi. Birinchi gumonlanuvchi shizofreniya. Umuman olganda, u taxminan 0,5-1% odamlarda aniqlanadi. Bu kasallik endogen, ya'ni ichki xususiyatga ega. Ko‘pincha bu irsiyat bilan bog‘liq. Psixologik, alkogolizm, giyohvandlik va boshqa omillarni o‘z ichiga olgan jarohatlar ham shizofreniyani qo‘zg‘atishi mumkin. Aniq sabablar hali ham noma'lum. Biroq, barcha holatlarda, miya neyronlari o‘rtasidagi aloqa uchun mas'ul bo‘lgan neurotransmitterlarning ishini buzilishi mavjud. Shizofreniya uchun doimiy davo yo‘q. Tashxis hayot uchun qoladi, hatto bemorda dori-darmonlar va psixoterapevtik davolanish yordamida to‘xtashga muvaffaq bo‘lgan bo‘lsa ham. Bemorlarda gallyutsinatsiyalar paydo bo‘ladigan holatlar eng qiyin. Ular dunyoni adekvat idrok etish va boshqalar bilan muloqot qilishni qiyinlashtiradi. Bu munosabatlarda, jumladan, oilada va ishda muammolar manbai bo‘ladi. Noqulay prognoz bilan, odam qobiliyatsiz bo‘lib qoladi va abadiy mutaxassislar nazorati ostida qoladi.



Shizofreniyaning yana bir o‘ziga xos xususiyati - bu kursning oldindan aytib bo‘lmaydiganligi. Bu to‘satdan paydo bo‘lishi mumkin va uning belgilari shunchalik xilma-xilki, barcha belgilarni



sanab o'tish deyarli mumkin emas. Shizofreniyada boshqa xarakterga ega bo'lishi mumkin bo'lgan gallyutsinatsiyalar haqida batafsilroq to'xtalib o'tamiz. Gallyutsinatsiyalar - haqiqiy tashqi ogohlantirishsiz ongda paydo bo'ladigan noto'g'ri tasvirlar. Bemor haqiqiy dunyoda bo'lmagan narsani ko'rishi, eshitishi, tegishi yoki boshqa hislar bilan his qilishi mumkin. Shu bilan birga, odamni u his qilayotgan tasvirlar shunchaki illyuziya ekanligiga ishonitirish juda qiyin, ayniqsa ular aqldan ozgan g'oyalar bilan birga bo'lsa. Odatda paroksizmal gallyutsinatsiyalar paydo bo'ladi. Faqat maxsus dorilarni qabul qilgandan keyin o'ting. Kamdan kam hollarda ular shifokorlarning aralashuvizsiz yo'qoladi, lekin tez orada yana paydo bo'ladi. Ba'zida gallyutsinatsiyalar surunkali bo'lib, hatto remissiya davrida ham yo'qolmaydi.

Gallyutsinatsiyalar turli sabablarga ko'ra tasniflanadi. Eng keng tarqalgan tasnif sezgi organlariga ko'ra. Bunda ular ko'rish, eshitish, hid bilish va taktilga bo'linadi. Kamroq kuzatiladigan visseral. Ushbu turlarning har biri o'ziga xos xususiyatlarga va navlarga ega. Vizual gallyutsinatsiyalar, mashhur e'tiqodga qaramasdan, shizofreniyada kam uchraydi. Agar ular paydo bo'lsa, unda o'tgan davrlarning kiyimlarida kiyinishi mumkin bo'lgan xotiralar yoki g'ayrioddiy odamlar ko'rinishida. Din yoki tasavvuf bilan bog'liq tasvirlar ham mumkin. Ko'pincha bemorlarni fotopsiya bezovta qiladi - ularning ko'zlari oldida chaqnashlar, uchqunlar va otashinlar. Biroq, bu alomat o'ziga xos emas, chunki u ko'z kasalliklari bilan ham rivojlanishi mumkin. Vizual gallyutsinatsiyalarning bir nechta turlari mavjud:

- makro-optik yoki mikro-optik,
- odam o'lchamlari o'zgargan har qanday narsalarni ko'rganda (Kerroll romanidagi Elis kabi);
- mobil va barqaror, tasvirlar harakatlanayotganda yoki har doim bir joyda, masalan, ko'rishning chekkasida;
- bitta va ko'p (hatto bir nechta ob'ektlar va odamlar bilan butun sahnalar ham mumkin);
- gipnagogik va gipnopompik, uyg'oqlikdan uyquga o'tishdan kelib chiqadi va aksincha.

Shizofreniyadagi eshitish gallyutsinatsiyalari eng keng tarqalgan alomatlardan biridir. Bemorlar ko'rsatmalar beradigan yoki qasamyod qiluvchi yoki oddiygina odamning harakatlariga izoh beradigan ovozlarni eshitadilar. Bemorning boshida butun dialoglar paydo bo'lishi mumkin va u beixtiyor tinglovchiga aylanadi.

Eshitish gallyutsinatsiyalarining bir necha turlari mavjud:

- akoasma - shovqin, o'q otish, musiqa, treskalar, qadamlar va boshqalar;
- fonemalar - so'zlarning yoki bo'g'inlarning bo'laklari; bir tomonlama - faqat ovozlari;
- ikki tomonlama - ovoqli dialog;
- og'zaki - mavjud bo'lmagan odamlarning ovozi.



Vizual gallyutsinatsiyalarga o'xshab, gipnagogik va gipnopompik gallyutsinatsiyalar farqlanadi. Ammo bemor uchun eng xavfli va boshqalardan biri majburiydir. Ular odamning ovozdan oladigan buyruqlari bilan bog'liq. U kimgadir hujum qilishni ham, o'ziga zarar etkazishni ham



buyurishi mumkin. Tashqi tomondan, eshitish gallyutsinatsiyalarini aniqlash oson emas, lekin siz odamning doimo o'zi bilan gaplashishi, tinglashi, pichirlab gapirishi va yana so'rashiga e'tibor berishingiz mumkin. Bundan tashqari, u tez-tez chapdan o'ngga qarab, "suhbatdoshini" topishga harakat qiladi. Xushbo'y gallyutsinatsiyalar bilan shizofreniya bilan og'rigan bemorlar mavjud bo'lmagan hidlarni eshitadilar va ular odatda yoqimsiz yoki hatto jirkanchdir - chirish, chirish yoki najas hidlari. Yon tomondan odamning doimiy ravishda hidlashi va qiyshayishi seziladi. U ovqatlanishdan bosh tortishi mumkin, chunki uning ishtahasi yo'qoladi. Ba'zi bemorlar ta'm gallyutsinatsiyalarini boshdan kechirishadi. Ular yomon pishirilgan ovqatdan shikoyat qiladilar yoki unda zahar borligini "sezadilar". Xuddi shunday alomat odatda ta'qib va fitna bilan bog'liq bo'lgan aldashlar bilan bog'liq. Visseral gallyutsinatsiyalar ba'zan taktil gallyutsinatsiyalarning bir turi deb ataladi. Ular paydo bo'lganda, odamga uning ichki organlarida "nimadir noto'g'ri" tuyuladi. Uning fikricha, uning ichida ilonlar sudralib yuradi yoki chiplar o'rnatiladi, ular yordamida maxsus xizmatlar yoki o'zga sayyoraliklar uning har bir harakatini kuzatib boradi. Dastlab psevdogallyutsinatsiyalar aqliy va apperseptiv gallyutsinatsiyalar deb atalgan. Ularning haqiqiylardan asosiy farqi shundaki, bemor ularning haqiqiy emasligini tushunadi. U tasvirlarni, qoida tariqasida, fantaziyaning ko'radi, lekin ular fazoviylikdan mahrum va eng muhimi, odam bu shunchaki illyuziya ekanligini tushunadi. Eshitish psevdogallusinatsiyalari bilan tovushlarning g'ayrioddiy joylashuvi qayd etiladi. Shunday qilib, bemor oshqozonida kimdir gaplashayotganini eshitishi mumkin. Shu bilan birga, u aks-sado yoki aks-sadoni ajratadi. Ovozlar gaplashishi yoki buyruq berishi mumkin. Ko'pincha Cannabich-Lioznerning alomati bor, agar bemorning boshida unga begona odamlar tomonidan kichikroq shaklda murojaat qiladigan qo'ng'iroqlar bo'lsa. Shizofreniyadagi psevdogallusinatsiyalarni haqiqiy gallyutsinatsiyalardan ajratish oson emas. Bemor ikkalasining ham mavjudligiga ishonishi mumkin. Biroq, soxta vahiylar haqiqiy ob'ektlar bilan aniqlanmaydi, gallyutsinatsiyalarda odam, agar u shaytonlarni yoki begonalarini ko'rsa, ular haqiqatan ham uning atrofidagi dunyoda borligiga ishonadi. Boshqa farqlar ham bor. Pseudogallyutsinatsiyalar odatda ertalab paydo bo'ladi, haqiqiy gallyutsinatsiyalar esa kechayu kunduz odamga hamroh bo'lishi mumkin. Soxta tasvirlar aniq kontur yoki lokalizatsiyaga ega emas va haqiqiy gallyutsinatsiyalar fazoviy yo'nalishga ega bo'lgan aniq ob'ektlar sifatida namoyon bo'ladi.

Shizofreniya ikki guruh belgilariga ega - salbiy va ijobiy. Ulardan birinchisi - befarqlik, tashabbusning etishmasligi, hech narsaga qiziqishning yo'qligi, depressiya va boshqalar. Gallyutsinatsiyalar ijobiy belgilar qatoriga kiradi, chunki ular aqliy faoliyatning natijasidir. Bundan tashqari, bu alomatlar aldangan fikrlarni o'z ichiga oladi.

Salbiy alomatlar sust shizofreniya uchun xarakterlidir va samarali - paranoid uchun. Ikkinchisi ko'pincha gallyutsinatsiyadir. Ammo shizofreniya buzilishining katatonik va gebefrenik shakllarida gallyutsinatsiyalar juda kam uchraydi. Bu shizofreniyaning murakkabligi va oldindan aytib bo'lmaydiganligining yana bir dalilidir. Eng qiyin narsa - bemorni birinchi tekshiruv uchun psixiatrga yuborish, chunki uni kasal ekanligiga ishontirish juda muammoli. Tashqi tomondan, shizofreniyaning tanib olish ham oson emas, chunki odam ko'pincha sog'lom ko'rinishi mumkin va unda "g'alatiliklar" vaqti-vaqti bilan paydo bo'ladi. Agar odamni kasalxonaga etkazish mumkin bo'lsa, unga keng qamrovli tekshiruv buyuriladi. Faqat tashxis qo'yilgandan keyin davolash tanlanadi. Siz shizofreniya alomatlarini, shu jumladan gallyutsinatsiyalarni antipsikotik dorilar yordamida to'xtatishingiz mumkin. Terapiya hujum paytida ham, remissiya paytida ham amalga oshiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida» Qonuni. - T., 1997 2. O'zb.
2. Engaging Deaf and Hard of Hearing Students in the School Library: A Handbook for Teacher-Librarians Nadene Eisner University of Illinois at Urbana-Champaign Graduate School of Library Information Science.
3. Olimov X.O., U.X.Olimov Psixiatriya klinikasining mukaddimasi Toshkent, 1997.
4. Xodjaeva N.I., Shayusupova A.U. Psixiatriya - Tashkent, 1995.
5. Jarikov N.M., Dr. Psixiatriya - M., 1989.
6. Korkina M.B., Tsvilko M.A., Marilov V.V., Kareeva M.A. Amaliy psixologiya. Moskva, 1986



HARBIY-VATANPARVARLIK TARBIYASINING METODOLOGIK ASOSLARI.

Abdumalikov Mirzo Mahmud o‘g‘li

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika
universiteti 2-bosqich magistranti.
+998914194656
mirzo@bk.ru

Anatatsiya: Harbiy vatanparvarlik tarbiyasi haqidagi bilimlar bilan qurollantirish va harbiy-vatanparvarlik tarbiyasining maqsadi, metodologik asoslari, mazmun-mohiyati, vazifalari, vositalari, pedagogik, psixologik asoslari, harbiy vatanparvarlik tarbiyasi tizimi va uning asosiy yo‘nalishlari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: odob, axloq, tarbiya, zero, lozim

Hozirgi kunda o‘zib kelayotgan yosh avlodga ta’lim va tarbiya berish yo‘nalishlari orasida vatanparvarlik tarbiyasi hamda uning tarkibiy qismi bo‘lgan harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi alohida o‘rin egallaydi.

Harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi insonni tarbiyalash yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, tegishli keng qamrovli ta’lim-tarbiyaviy tadbirlarni hamda o‘quv-tarbiya jarayonini o‘z ichiga oladi. Bu masalalar ilmiy jihatdan pedagogika, psixologiya, sotsiologiya, tibbiyot, ma’naviyat asoslari, tarix, falsafa, tegishli harbiy mutaxassislik fanlari, Qurolli Kuchlarning asosiy me’yoriy hujjatlari va ular faoliyatining hamda Vatanimiz mudofaasining asosiy tamoyillari, matematik statistika, mantiq va boshqa bir qator fanlar tomonidan o‘rganiladi. Ushbu fanlarning har biri harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi bilan bog‘liq masalalarni o‘z tadqiqot yo‘nalishlari va usullari bo‘yicha o‘rganib, tegishli xulosalarni chikaradi va tavsiyalarini beradi. Ular harbiy-vatanparvarlik tarbiyasining metodologik asoslarini tashkil qiladi.

Bunday metodologik asos harbiy-vatanparvarlik tarbiyasining ilmiy tamoyillarini, rivojlanish yo‘nalishlarini, samarali shakl va usullarini hamda istiqboldagi vazifalarini zamonaviy ilmiy xulosalarga muvofiq belgilashga xizmat qiladi. Bunda harbiy- vatanparvarlik tarbiyasi va harbiy mutaxassislar tayyorlash masalalari bo‘yicha umumiy va harbiy pedagogika va psixologiya, sotsiologiya, tibbiyot, ma’naviyat asoslari, tarix falsafa, matematik statistika, mantiq, tegishli harbiy mutaxassislik fanlari hamda boshqa fanlarning ilmiy xulosalariga va me’yoriy-huquqiy talablarga asoslaniladi.

Harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi o‘z mohiyatiga ko‘ra vatanparvarlik tarbiyasiga asoslanadi va uning davomi hisoblanadi. Bunda vatanparvarlik tarbiyasining sifati va samaradorligi qanday darajada ekanligi harbiy-vatanparvarlik tarbiyasini amalga oshirishda muhim ahamiyatga ega bo‘ladi.

Hozirgi zamon pedagogika fanining ta’lim va tarbiyaning bir-biri bilan bog‘liqligi hamda ajralmasligi tamoyiliga muvofiq vatanparvarlik tarbiyasi vatanparvarlik ta’limi bilan chambarchas bog‘liq. Xuddi shuningdek, harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi ham harbiy-vatanparvarlik ta’limi bilan chambarchas bog‘liq. Bundan xulosa chikarish mumkinki, vatanparvarlik tarbiyasi vatanparvarlik ta’limi asosida amalga oshiriladi, xuddi shuningdek, harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi ham harbiy-vatanparvarlik ta’limi asosida amalga oshiriladi. Ma’lumki, har qanday tarbiya tegishli bilim, ko‘nikma, malakalarni o‘zlashtirish asosida amalga oshadi. Bu esa tarbiyani amalga oshirish, avvalo, o‘sha tarbiyaga tegishli bilim, ya’ni ta’lim jarayonidan boshlanishini ko‘rsatadi.

Shunga muvofiq tartibda bu jarayonlarni quyidagicha yaqqolroq ifodalash mumkin:

Vatanparvarlik ta’limi - o‘zib kelayotgan yosh avlodga o‘z Vatani, xalqini sevish, uning himoyasiga tayyor turish sifatlarini tarkib toptirish va mustahkamlab borishga xizmat qiluvchi bilimlarni o‘rgatish, ko‘nikma va malakalarni shakllantirishga qaratilgan jarayon.

Vatanparvarlik tarbiyasi - o‘zib kelayotgan yosh avlodga o‘z Vatani, xalqini sevish, uning himoyasiga tayyor turish sifatlarini tarkib toptirish va mustahkamlab borishga qaratilgan jarayon.

Harbiy-vatanparvarlik ta’limi - o‘zib kelayotgan yosh avlodning Vatan mudofaasi yo‘lida xizmat qilishga tayyorligini amalga oshirish va shu tayyorlikni takomillashtirib borishga xizmat qiluvchi bilimlarni o‘rgatish, ko‘nikma va malakalarni shakllantirishga qaratilgan jarayon.

Harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi - o‘zib kelayotgan yosh avlodning Vatan mudofaasi yo‘lida xizmat qilishga tayyorligini amalga oshirishga qaratilgan jarayon.



Shunga muvofiq ravishda harbiy-vatanparvarlik tarbiyasining yana bir metodologik asosi uning ushbu yoʻnalishdagi taʼlim jarayoni hamda umumiy vatanparvarlik tarbiyasi va taʼlimi jarayonlari bilan chambarchas bogʻlik ekanligi hisoblanadi. Bu jarayonlar esa harbiy-vatanparvarlik tarbiyasining maʼnaviy-maʼrifiy va nazariy asosini tashkil etuvchi Vatanni himoya qilish toʻgʻrisidagi zamonaviy tegishli ilm-fan sohalarining xulosalari bilan birgalikda xalqimizning Vatan va uni himoya qilish haqidagi tarixiy va zamonaviy amaliy tajribasi, ilmiy merosi, shuningdek, mazkur masala boʻyicha umuminsoniy qadriyatlar va zamonaviy talablarni oʻrgatish jarayonlarini oʻz ichiga oladi.

Ushbu metodologik asoslar harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi bilan bogʻliq barcha nazariy hamda amaliy masalalarni hal etishda hisobga olib borilishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga qoʻramiz. Mazkur kitobda Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2016 yil 1 noyabrdan 24 noyabrga qadar Qorakalpogʻiston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri saylovchilari vakillari bilan oʻtkazilgan saylovoldi uchrashuvlarida soʻzlagan nutqlari oʻrin olgan. Toshkent: Oʻzbekiston, 2017.
2. Oʻzbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining umumharbiy Nizomlari. Toshkent: Oʻzbekiston, 1996.
3. Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori “Oʻzbekiston Respublikasi oliy harbiy taʼlim muassasalariga tanlash tartibi va qabul qilish qoidalari toʻgʻrisidagi Nizomni tasdiqlash haqida», 2014 yil 3 iyun.
4. Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014 yil 18 dekabrda 348-son qarori bilan tasdiqlangan “Chaqiruvga qadar boshlangʻich tayyorgarlikni tashkil etish va uni amalga oshirish tartibi toʻgʻrisida”gi Nizom.
5. Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 23 fevraldagi 140-sonli qarori bilan tasdiqlangan Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash konsepsiyasi.



ESHITISHIDA NUQSONI BO'LGAN BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING NUTQINI SHAKLLANTIRISH TEXNOLOGIYASI.

Karabaeva Dilbar Isroilovna

Tashkent davlat Pedagogika Universiteti

Tayanch doktorantura doktoranti

telefon: +998998778816

dilbar.karabayeva@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada kar va zaif eshituvchi bolalar uchun maxsus maktab o'quvchilarining nutqini shakllantirishda qo'llaniladigan usullarning ma'nosi tahlil qilinadi hamda eshitish qobiliyati buzilgan bolalar uchun nutqni rivojlantirish texnologiyalari tavsifi keltirilgan.

Kalit so'zlar: nutq, muloqot, maxsus ta'lim, surdopedagog, daktil va imo-ishora nutqi, eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar, texnologiya.

Ma'lumki, kar va zaif eshituvchi bolalar atrofidagi narsa va hodisalar haqida o'z tasavvurlariga ega bo'lib, ularni amalda o'rganadilar. Texnologiya, predmetli amaliy amaliy ta'lim orqali ularning nutqi shakllanadi va atrof-muhit haqidagi bilimlarni, hayotiy tajribalarini egallaydilar. Nutqni rivojlantirish g'oyasidan kelib chiqib, surdo tarjimonlari ularni leksik-mantiqiy tafakkurni rivojlantirish bilan birga og'zaki nutqni shakllantirishni eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni o'qitishning asosiy vazifasi deb biladilar. Fikrlash taraqqiyotining nutq rivojlanishidan nisbiy mustaqilligini X.Mixaelbast ham ta'kidlaydi. O'z tadqiqotlari asosida u quyidagi xulosaga keladi: 7-15 yoshli kar bolalar nutq rivojlanishining umumiy darajasiga nisbatan mavhumlik va kontseptsiya qobiliyatlari bo'yicha eshitadigan bolalardan kamroq farq qiladi. Bundan kelib chiqadiki, kar bolalarda mantiqiy fikrlash nutqqa qaraganda tezroq rivojlanadi, shuning uchun fikrlashning rivojlanishi nutqning rivojlanishi bilan belgilanmaydi.

Mehnat va predmetli amaliy ta'lim darslari bolalarda hayot uchun zarur bo'lgan ko'nikmalar, ijodkorlik va qurilish ko'nikmalarini rivojlantirish uchun keng imkoniyat yaratadi. Dars davomida o'qituvchi bolalarni muloqot qilishga undaydi. Agar sinf brigada yoki guruhlariga bo'lingan bo'lsa, buyruq kapitanlar, navbatchi, kichik o'qituvchi tomonidan beriladi. Ish jarayonida o'quvchilar o'zlarining harakatlari va qilgan narsalari haqida hisobot berishadi. Mehnat darslarida jamoa bo'lib ishlash muhim ahamiyatga ega. Masalan, "Bizning maktab" modelini tayyorlashda qanday materiallar, ish asboblari va bolalarning vazifalari aniqlanishi kerakligini aniqlash kerak. Jamoa ishini tashkil qilishda har bir o'quvchining individual xususiyatlarini hisobga olish kerak. Har bir o'quvchini maket yaratish jarayoniga jalb qilish, dars oxirida har bir o'quvchi bajargan ishi yuzasidan hisobot berishi kerak. O'qituvchi bolalarning suhbatiga rahbarlik qiladi, xatolarni tuzatadi, ularning ish natijalarini baholaydi. Kelgusida, kar va zaif eshituvchi bolalarning turli xil fikrlash shakllarini: ko'rgazmali-harakatli, ko'rgazmali-tasvirli va og'zaki-mantiqiy fikrlashni, shuningdek, turli muammolarni hal qilishda ularning o'tishini va o'zaro ta'sirini o'rganish katta ahamiyatga ega. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar muammolarni hal qilishda qanday vositalardan foydalanishlari va bunda ob'ekt harakati, tasvirlari, nutq vositalari qanday rol o'ynashini aniqlab olish kerak. Faqat karlarning nutqiga emas, balki imo-ishoralar orqali ham e'tibor berish kerak. Eshitish qobiliyati buzilgan bolalarning mantiqiy tafakkurini rivojlantirish ularning muvaffaqiyatli ta'lim olishi va rivojlanishining muhim shartidir. Tushungan, tabaqalashtirilgan tafakkurga o'tish bolalarning lug'at boyligini o'zlashtirish darajasiga, nutqning grammatik tuzilishiga, og'zaki nutqiga qarab bosqichma-bosqich amalga oshiriladi.

Foydalanilgan adaboyotlar:

1. Karabayeva, D. I. (2022). Eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarning bilish jarayonlarini va og'zaki nutqini rivojlantirish yuzasidan olib boriladigan korreksion ishlar. *Maktab va hayot*, 5.
2. Karabaeva, Dilbar I. "IDEAS AND APPROACHES WHICH HAVE BEEN IMPORTANT IN THE FORMATION AND DEVELOPMENT OF CORRECTION-PEDAGOGICAL ASSISTANCE." *European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies* 2.04 (2022): 359-365.
3. Mamarajabova Z. N. Pedagogical factors of the development of speech in children with hearing impairment in the process of literary education //ACADEMICIA: An International



Multidisciplinary Research Journal. – 2021. – Т. 11. – №. 4. – С. 1917-1922.

4. Mamarajabova Z. N. EFFECTIVE METHODS OF SPEECH DEVELOPMENT OF DISABLED STUDENTS IN THE PROCESS OF LITERARY EDUCATION //CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS. – 2021. – Т. 2. – №. 10. – С. 43-48.

5. Sadirova, K. G., and O. F. Xaydarova. "The Development of Speech and Thinking of the Students with Hearing Impairments in the Science Class." *International Journal on Integrated Education* 3.8: 246-249.

6. D.I.Karabayeva. “Eshitishida nuqsoni bo’lgan bolalar rivojlanishining o’ziga xos xususiyatlari”. “Science and education” scientific journal ISSN 2181-0842/ November 2022. 891-895.

7. Isoqjonova, D. M. (2022). PECULIARITIES OF SPEECH DEVELOPMENT LAWS IN CHILDREN WITH HEARING IMPAIRMENT. *Thematics Journal of Education*, 7(5). <http://thematicsjournals.in/index.php/tjed/article/download/1239/1249>, <http://thematicsjournals.in/index.php/tjed/article/view/1239>

8. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar ta'limida daktil nutqidan foydalanishning ahamiyati

9. KD Isroilovna, European journal of science archives conferences series, 161-164.

10. Characteristics of development of children with hearing impairment, KD

11. Isroilovna“, Journal of agriculture and horticulture” International scientific journal

12. Xamidova M. U. Maxsus pedagogika. – 2018.



MUHANDISLIK GRAFIKASI TA'LIMIGA KONSEPTUAL YONDASHUV

Dilshodbekov Sh.D.

Nizomiy nomidagi TDPU

Dotsenti, PhD.

shokhbozdilshodbekov@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada muhandislik grafikasi fanlarini kompyuter grafikasi yutuqlari bilan integrativ yondashuv asosida o'qitish va ta'lim jarayoniga additive texnologiyalarni joriy etish masalalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: muhandislik grafikasi, additiv texnologiya, raqamlashtirilgan ishlab chiqarish.

Bilamizki, biron buyum, detal, bino va boshqalarni ishlab chiqarish yoki qurish uchun uning chizmalari talab etiladi. Chizma esa muhandis tomonidan bajariladi.

Muhandis unga qo'yilgan talablar asosida hayolan loyihalagan buyum yoki detalni avval eskizini bajaradi. Eskiz asosida uning ishchi chizmasi bajariladi. Ishchi chizma asosida detal ishlab chiqariladi. Bu jarayon uzoq yillar davomida shakllanib an'anaviy tus olgan.

Hozirgi kunda ishlab chiqarish jarayoni to'liq avtomatlashmoqda. Endilikda biron detalni ishlab chiqarish uchun additiv texnologiyalardan keng foydalanilmoqda. Buning natijasida chizmaga bo'lgan ehtiyoj yo'qolmoqda.

Kompyuter grafikasining zamonaviy yutuqlaridan foydalangan holda, ya'ni CAD dasturlaridan foydalanib muhandislar loyihalanayotgan detalning 3D modelini ishchi chizmasisiz quradilar va yaratilgan 3D modelni additiv texnologiyadan foydalanib nashr etishi yoki ishlab chiqarishi mumkin.

Usullar	Vizualizatsiya	Moliyaviy tomoni
An'anaviy usul		Uzoq, qimmat, inson omili, past aniqlik
Aralash		Tezroq, arzon, an'anaviy usul bilan chegaralangan
Raqamlashtirilgan		Hatolar bo'lmasligi, o'ziga hos geometriya, arzon, tez

Raqamlashtirilgan usulda ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish uchun, muhandis kadrlarni tayyorlaydigan ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini ham raqamlashtirilgan texnologiyalarga asoslangan fanlar bilan tashkillashtirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Ammo, bu butunlay an'anaviy usuldan voz kechish kerak degani emas. Bu tajribani AQSh da amalga oshirishgan va hozirda an'anaviy usulda chizma bajarish o'quv jarayonining kam bo'lsada bir qismidan joy olgan.

Raqamlashtirilgan va an'anaviy usulda ta'lim jarayonini tashkillashtirib muhandis tayyorlash, o'zgaruvchan bozor iqtisodiyoti uchun moslashuvchan kadr tayyorlash imkonini beradi.

Bu usul hozirgi an'anaviydan raqamlashtirilgan usulga o'tish jarayoni uchun qo'l keladi. Ammo, ishlab chiqarish jarayoni konseptual qarashlar inson omilini kamaytirishni va juda yuqori aniqlikka ega bo'lgan texnologiyalarni talab etadi.



Ta’lim jarayoniga grafik dasturlarni chuqurlashtirib o’qitishga yo’naltirilgan fanlar va dasturlarni tadbiq etish, oshib borayotgan talablarga mos keladigan mutaxassislarni yetkazib berish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. Ш.Дилшодбеков. Роль современные информационные технологии при подготовке высококвалифицированных преподавателей черчение. УзМУ Хабарлари, 2022, (1/3/1) ISSN 2181-7324.
2. Ш.Дилшодбеков, Д.Юлдошева. Подготовка студентов к проектной деятельности на базе компьютерных технологий. “Scientific approach to the modern education system” France international scientific online conference. Part 1, 5th February. 214-214 betlar.



ALISHER NAVOIYNING PEDAGOGIK QARASHLARI

G.Tillaboyeva,
o'qituvchi, Farg'ona
davlat universiteti

Annotatsiya: Alisher Navoiy xalqimizning ongi va tafakkuri, badiiy madaniyati tarixida ma'rifatparvar, ma'naviyat va madaniyatning haqiqiy namoyandasi sifatida ulug'langan buyuk shaxsdir. U shoir, mutafakkir, davlat arbobi, shuningdek, tasavvuf bo'yicha yetuk alloma bo'lgan.

Maqolada Alisher Navoiyning pedagogik qarashlari tadqiq etilgan.

Kalit so'zlar: tarbiya, Navoiyning pedagogik qarashlari, tasavvuf, komil inson.

Hech kimga sir emaski, ilm-ma'rifat, ma'naviyat yo'lini tutgan odam saodatga erishadi, hayotning mohiyatini anglab boradi. Adabiyot esa har bir xalqning o'tmishi, buguni va kelajagini bog'lovchi ta'sir kuchiga ega muhim vositadir. Unda har bitta millatning madaniyati, urf-odati, dunyoqarashi, ma'naviyati aks etadi. Demak, adabiyot yashasa millat yashaydi, uning sha'ni ulug'lanadi, qadriyatlar qadr topadi.

Sharq mutafakkirlarining fozil inson, komil inson haqidagi fikrlari, axloq-odob haqidagi g'oyalari bugun hamjamiyat ma'naviyatini yuksaltirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, yoshlarni ma'naviy, axloqiy, intellektual va jismoniy nuqtai nazaridan yetuklik darajasiga ko'tarilishini ko'zda tutadigan Alisher Navoiy ma'naviy merosidan keng foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Shuni quvonch bilan aytish joizki, Alisher Navoiyning boy va serqirra ijodi faqat o'zbek adabiyotidagina emas, balki jahon adabiyotida ham salmoqli o'ringa ega. Navoiy lirik, epik va falsafiy asarlari bilan XV asr adabiyotida chuqur iz qoldirdi. Ulug' shoirning asarlari hayotlik davridayoq Xitoydan tortib Kichik Osiyogacha yetib bordi va hozirda butun dunyo xalqlari ham sevib o'qishmoqda.

Navoiyning asarlari o'z davrining yirik ma'naviy manbalaridan biridir. Shoirning o'zi bevosita maktabdor yoki madrasada muddaris bo'lib, xizmat qilmagan bo'lsa-da, podsholar va butun xalqning ta'lim-tarbiyasi, ma'naviy dunyosining shakllanishi uchun xizmati beqiyosdir. Uning asarlaridagi dono so'zlar, o'gitlar, maqolotlar, rivoyatlar, mehnatsevarlik, odoblilik, go'zallikni sevish, zehnilik, hayotga va kishilarga, Vatanga muhabbat kabi buyuk fazilatlarini ulug'lashdir. Yaxshi fazilatlar mujassamlashgan inson chinakam insondir. U bolalarning voyaga yetishida, shakllanishida, yetuk inson, jamiyat manfaati uchun foydali kishi bo'lib etishishida ta'lim va tarbiyani yetakchi omillardan biri deb hisoblaydi.

Navoiyning pedagogik nazariyasida vatanparvarlik ulug'lanadi. Navoiy insonga muhabbat vatanga bo'lgan muhabbat bilan uzviylikda ekanligini aytadi. Navoiy xalqini, vatanini, uning go'zal tabiatini, ona tilini, madaniyatini, milliy qadriyatlarini sevgan odamni chin inson hisoblaydi. Zero, vatanga muhabbat, chin insoniylik eng go'zal fazilatdir. Navoiyning fikricha, vatanparvarlik faqat el-yurtning himoya qilishdan iborat bo'lmay, el-yurtning obod, farovon qilish uchun ham kurashishdir. Shuning uchun ham insonni sevish, uning qadr-qimmatini ko'tarish, unda eng yaxshi fazilatlarini shakllantirish, rivojlantirish kerak. Navoiy ta'lim-tarbiya haqida Navoiyning uqdirishicha, tarbiyaning maqsadi - yosh avlodni xalqparvar, bilimli, eng yaxshi fazilatlariga ega kishi qilib etishtirishdir. Navoiy bolaning voyaga etishishida, kamol topishida tarbiyaning kuchi va qudratiga, tarbiya natijasida bolaning foydali va etuk kishi bo'lib o'sishiga ishonadi. Navoiyning fikricha, yosh bola yaxshi nima-yu, yomon nimaligining farqiga bora olmaydi, chunki uning tushunish, fikrlash, muhokama qilish qobiliyati o'smagan bo'ladi. Shu sababli, u o'z xususiyatiga ko'ra, biror salbiy ta'sir natijasida yaramas, noto'g'ri yo'lga tushib ketishi mumkin. Demak, bolani juda kichik yoshidan boshlab tarbiyalamoq darkor. Navoiy odob - odamning olijanob fazilatlaridan ekanligini aytib, odobli kishi ochiq yuzli, xushmuomala, yoqimli bo'lishini ta'kidlaydi. Uning fikricha, kishilar uchun ikki yuzlamachilik, qo'pollik yotdir. Odobli odam doimo hurmat va izzatda bo'ladi, ota-ona, aka-uka, opa-singilni, do'stlarni hurmat-izzat qilmoq - har bir odobli kishining burchidir.

Navoiy o'z pedagogik qarashlarida karamlilik, saxovatlilik va himmatlilikni ham insoniy go'zal fazilat hisoblaydi, el-yurtga, muhojirlarga yordam berish eng yuqori fazilat ekanligini aytadi.

Navoiy aql va ilmni insonning eng go'zal va zaruriy fazilatlaridan biri hisoblaydi. Shuning uchun ham har bir insonning eng muhim burchi - ilm olishdir. Ammo ilmdan shaxsiy g'araz va



martaba - mansab uchun foydalanmaslik kerak. Ilmlarni egallashdan maqsad - xalq va jamiyatning farovonligi, xalqning baxt-saodati uchun xizmat qilishdir. Jamiyatning uzviy qismi - a'zosi bo'lgan har bir shaxs o'z xalqiga xizmat qilishi, foyda keltirishi zarur. U xalq uchun, vatan uchun foyda keltirar ekan, bu uning o'zi uchun ham foyda ekanligini unutmasligi lozim.

Xulosa qilib aytganda, Alisher Navoiyning komil insonni shakllantirishga oid fikrlari, uning ta'limiy-axloqiy qarashlari pedagogik fikr taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etadi. Allomaning pedagogik qarashlari o'zidan oldin o'tgan olimlarning bu boradagi ilg'or ta'limotiga, shuningdek, komil insonni tarbiyalashga oid an'anaviy Sharq xalqlari ta'lim-tarbiya yo'riqlariga asoslanadi. Alisher Navoiy ta'lim-tarbiya masalalariga alohida e'tibor berar ekan, tarbiya jarayonlarini, vositalarini, talablarini ko'rsatadi. U ta'limda ilmiylikka asoslanganlik tarixiylik kabi talablarni asos qilib oladi. O'z davridagi musulmon maktablarining yutuq va kamchiliklarini tahlil etadi.

Adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. Yigirma jildlik. 14-jild. T.: "Fan", 1998.
2. Tillaboyeva, G., & Umarova, N. R. (2021). ALISHER NAVOIY ASARLARIDA BADIY TAXALLUSLARNING QO'LLANILISHI. *Studencheskiy vestnik*, (13-5), 70-72.
3. Tillaboyeva, G. S. Q. (2022). ALISHER NAVOIY SHE'RIYATIDA "SHAXS" TUSHUNCHASI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(2), 182-196.



TECHNOLOGY FOR IMPROVING SPEECH OF ELEMENTARY SCHOOL PUPILS WITH HEARING IMPAIRMENT.

Karabaeva Dilbar Isroilovna

Tashkent State Pedagogical University

Doctoral student of basic doctoral studies

Phone number: +998998778816

dilbar.karabayeva@gmail.com

Abstract: This article shows the description of speech development technologies for children with hearing impairment. The meaning of the methods used to form the speech of students of the special school for deaf and hard of hearing children is analyzed.

Key words: special education, program, pedagogue of the deaf, subject-based practical education, pupils with hearing impairment, technology, speech, communication.

It is known that deaf and hard-of-hearing children have their own ideas about things and events around them, and they learn them practically. Through technology, subject-based practical education, they acquire knowledge about the environment, life experiences, and their speech is formed. Based on the idea of speech development, sign language interpreters consider the formation of oral speech together with the development of lexical-logical thinking in them as the main task of teaching children with hearing impairment. The relative independence of the development of thinking from the development of speech is also emphasized by H. Michaelbast. Based on his research, he comes to the following conclusion: Deaf children aged 7-15 years differ less from hearing children in terms of abstraction and conceptualization skills compared to the general level of speech development. It follows from this that logical thinking in deaf children develops faster than speech, so the development of thinking is not determined by the development of speech.

In the future, it is of great importance to study the different forms of thinking of deaf and hard of hearing children: demonstration-movement, demonstration-image and verbal-logical thinking, as well as their transition and interaction in solving various problems. It is necessary to clarify what kind of tools children with hearing impairment use to solve problems, and what role object movements, images, and speech tools play in this. Attention should be paid not only to the speech of the deaf, but also through gestures. Development of logical thinking of children with hearing impairment is an important condition for their successful education and development. The transition to understood, differentiated thinking is carried out step by step, depending on the level of acquisition of children's vocabulary, the grammatical structure of speech, oral speech.

Labor lessons create a wide opportunity for children to develop skills, creativity and construction skills necessary for life. During the lesson, the teacher encourages children to communicate. If the class is divided into brigades or groups, the command is given by captains, duty officer, junior teacher. In the process of work, students report on their actions and the things they make. Working as a team is important in labor classes. For example, when preparing the "Our School" model, it is necessary to determine what materials, work tools and children's tasks are to be determined. When organizing team work, it is necessary to take into account the individual characteristics of each student. Involve every student in the process of making a model, and at the end of the lesson, every student should give a report on the work he has done. The teacher guides children's conversation, corrects mistakes, evaluates the results of their work.

REFERENCES:

1. Xamidova M. U. Maxsus pedagogika. – 2018.
2. Karabaeva, Dilbar I. «IDEAS AND APPROACHES WHICH HAVE BEEN IMPORTANT IN THE FORMATION AND DEVELOPMENT OF CORRECTION-PEDAGOGICAL ASSISTANCE.» European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies 2.04 (2022): 359-365.
3. Mamarajabova Z. N. Pedagogical factors of the development of speech in children with hearing impairment in the process of literary education //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2021. – T. 11. – №. 4. – C. 1917-1922.



4. Mamarajabova Z. N. EFFECTIVE METHODS OF SPEECH DEVELOPMENT OF DISABLED STUDENTS IN THE PROCESS OF LITERARY EDUCATION //CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS. – 2021. – Т. 2. – №. 10. – С. 43-48.
5. Sadirova, K. G., and O. F. Xaydarova. «The Development of Speech and Thinking of the Students with Hearing Impairments in the Science Class.» International Journal on Integrated Education 3.8: 246-249.
6. D.I.Karabayeva. “Eshitishida nuqsoni bo’lgan bolalar rivojlanishining o’ziga xos xususiyatlari”. “Science and education” scientific journal ISSN 2181-0842/ November 2022. 891-895.
7. Isoqjonova, D. M. (2022). PECULIARITIES OF SPEECH DEVELOPMENT LAWS IN CHILDREN WITH HEARING IMPAIRMENT. Thematics Journal of Education, 7(5). <http://thematicsjournals.in/index.php/tjed/article/download/1239/1249>, <http://thematicsjournals.in/index.php/tjed/article/view/1239>
8. Eshitishida nuqsoni bo’lgan bolalar ta’limida daktil nutqidan foydalanishning ahamiyati

KD Isroilovna, European journal of science archives conferences series, 161-164.
9. Characteristics of development of children with hearing impairment, KD Isroilovna“, Journal of agriculture and horticulture” International scientific journal
10. FORMING THE INCLUSIVE COMPETENCE OF FUTURE TEACHERS OF THE DEAF S BQ - INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN ..., 2023



YOSHLARNI TARBIYALASHDA MEHNAT TA'LIMINING O'RNI VA MAZMUNI

Xusan Abduraximovich Umarov,
Nizomiy nomidagi TDPU v.b. dotsenti, PhD
Телефон: +99894687-58-18

ANNOTATSIYA: Mazkur maqolada qadim zamonlardan beri dunyoning qator mamlakatlarida yoshlarni tarbiyalashda muhim rol o'ynagan mehnat tarbiyasining mazmuni haqida so'z borgan

KALIT SO'ZLAR: Ta'lim islohotlari, mehnat ta'limi, kasbga yo'naltirish, kasbiy ta'lim, politexnik ta'lim.

Qadim zamonlardan beri dunyoning ko'plab mamlakatlarida endi o'sib kelayotgan yoshlarni tarbiyalashda muhim ro'l o'ynagan mehnat tarbiyasi kishidan ijtimoiy foydali mehnatga ichki ehtiyoj, intizom, batartiblik, tashkilotchilik, tashabbuskorlik, ishchanlik, ishning ko'zini bilish singari qator shahsiy va kasbiy sifatlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Ijtimoiy hayotda mehnat inson ehtiyojlarini qondirishning birinchi va asosiy vositasi bo'lganligi uchun ham jamiyatning yosh vakillarini tarbiyalashda mehnat tarbiyasi tarbiyaning boshqa turlaridan avvalroq paydo bo'lgani bejiz emas.

Ta'lim-tarbiya sohasida mehnat tarbiyasi „mehnat ta'limi“, „kasbga yo'naltirish“, „kasbiy ta'lim“, XX-asir oxirlaridan boshlab „politexnik ta'lim“ singari qator tushunchalarni o'z ichiga oluvchi g'oyat keng va muhim falsafiy-pedagogik kategoriya hisoblanadi. Yoshlarga mehnatga oid tarbiyani berish va ko'nikmalarni shakllantirish hamma zamonlarda ham jamiyat taraqqiyotining asosi, ularni katta hayotga tayyorlashning yagona vositasi bo'lib hisoblangan. Shuning uchun ham qator pedagogika va shaxs tarbiyasiga oid tadqiqotlar shuningdek barcha mutafakkirlar tomonidan yaratilgan manba'larda mehnat tarbiyasiga katta e'tibor qaratilgan. Shu o'rinda muhim bir jihatga e'tiborimizni qaratishimiz zarur, yuqorida sanab o'tilgan manba'larda „Mehnat tarbiyasi“ insonni faqat jismoniy – qo'l mehnatga o'rgatish, ko'nikma va malakalarni shakllantirish haqida so'z bormagan. Mazkur yondashuvning maqsadi insonni faqat iste'molchiga qilib tarbiyalashdan chetlashish, uni noshud, yalqov va o'zgalar mehnatini qadirlamaydigan ma'naviyati kemtik shaxs bo'lib shakllanishini oldini olishdan iborat.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning O'qituvchi va murabbiylar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqida *“Biz keng ko'lamli demokratik o'zgarishlar; jumladan, ta'lim islohotlari orqali O'zbekistonda yangi Uyg'onish davri, ya'ni Uchinchi Renessans poydevorini yaratishni o'zimizga asosiy maqsad qilib belgiladik. ... Biz maktabgacha ta'lim va maktab ta'limi, oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimi hamda ilmiy-madaniy muassasalarni bo'lg'usi Renessansning to'rt uzviy halqasi, deb bilamiz. Bog'cha tarbiyachisi, maktab muallimi, professor-o'qituvchilar va ilmiy-ijodiy ziyolilarimizni esa yangi Uyg'onish davrining to'rt tayanch ustuni, deb hisoblaymiz.”* [1] degan so'zlarni aytdilar. Bundan ko'rinib turibdiki mazkur jarayonda oila atalmish “buyuk qo'rg'on” bilan bir qatorda maktabning ham o'rni beqiyos.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Таълим тизими ислохотлари Ўзбекистонда янги Уйғониш даври пойдеворини яратади <https://xs.uz/uzkr/post/talim-tizimi-islohotlari-ozbekistonda-yangi-ujgonish-davri-pojdevorini-yaratadi>

2. X.A. Умаров, З.А. Умарова / " Использование электроннообразовательных ресурсов в целях создания образовательной экосистемы". Перспективные информационные технологии / Перспективные информационные технологии (ПИТ 2018) 2018

3. Umarova F.A., Umarova Z.A., Umarov X.A. “Scientific and practical bases of creation and use of electronic educational resources in educational process.” European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol.7 №. 12,2019. ISSN 2056-5852



RAQAMLI TA'LIM SHAROITIDA TALABALAR MUSTAQIL TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISHDA MEDIARESURLARNING ROLI

Umarova Zaxro Abduraxim qizi,

Nizomiy nomidagi TDPU Matematika va ta'limda
axborot texnologiyalari kafedrası v.b.dotsenti, PhD

Annotatsiya: Maqolada mediareсурslar talabalar mustaqil tayyorgarligini rivojlantirishning samarali vositasi sifatida qaralib, talabalar orasida mustaqil ta'lim va umrbo'yi ta'lim olish konsepsiyalarini targ'ib qilishdagi roli batafsil yoritilgan.

Kalit so'zlar: mustaqil ta'lim, umrbo'yi ta'lim olish konsepsiyasi, mediareсурs,

Bugungi kunda har bir mutaxassis kadr oldida turgan asosiy vazifa oliy ta'lim muassasasini tamomlagandan keyin ham kasbiy faoliyati davomida doimiy ravishda o'z ustida ishlashi, mustaqil ta'lim olishi hisoblanadi. Shu sababli mamlakatimizda ham mustaqil ta'lim soatlari ulushini oshirish va “umrbo'yi ta'lim olish” konsepsiyasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, talabalarda mustaqil ta'lim olish, o'quv jarayonida kompetensiyalarni kuchaytirishga qaratilgan metodika va texnologiyalarni joriy etish, o'quv jarayonini amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirish, bu borada o'quv jarayoniga xalqaro ta'lim standartlariga asoslangan ilg'or pedagogik texnologiyalar, o'quv dasturlari va o'quv-uslubiy materiallarni keng joriy etish kabi tadbirlar[1] oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishi belgilangan. Talaba kelgusida muvaffaqiyatli umrbo'yi ta'lim bilan shug'ullanishi bevosita uning oliy ta'lim muassasalarida tahsil olish davrida mustaqil ta'lim jarayonini samarali tashkil etilganiga bog'liqdir. Aynan shu davrda talabada mustaqil ta'lim uchun zaruriy ko'nikmalar, ya'ni talabaning mustaqil tayyorgarligi shakllantiriladi. Talabaning mustaqil tayyorgarligi – bu uning o'z ta'lim jarayoniga ma'suliyat bilan yondashishi kerakligini anglab yetishi, mazkur jarayonni to'g'ri tashkil etishi, talabaning mazkur jarayondagi faol ishtiroki va tashabbusi, mustaqil ta'lim maqsadlarini to'g'ri qo'ya olishi va o'ziga mos mustaqil ta'lim usullarini va vositalarini tanlay olishi bilan belgilanadi.

Bugungi kunda raqamli ta'lim sharoitida talabalarining mustaqil tayyorgarligini rivojlantirishda mediareсурslarning ahamiyati katta. Inson o'zi uchun qiziq bo'lgan va o'ziga jalb etadigan ma'lumotlarni yaxshiroq qabul qiladi[3]. Natijada, mediareсурslar vositasida ishtiyoq bilan qabul qilingan o'quv axboroti uni o'zlashtirish, tushunish jarayonini oson kechishiga olib keladi. Mustaqil ta'limni tashkil etishda ixtiyoriy mediareсурsdan birday foydalanish samara bermaydi, axborotni o'zlashtirish jarayonini osonlashtirmaydi. Shu tufayli, ta'lim oluvchilar uchun muayyan yangi bilimlarni mustaqil o'rganish va ko'nikmalarni hosil qilish uchun foydali bo'ladigan ta'limiy mediareсурslarni tanlash, ularni yaratish masalasini hal etish talab etiladi. Shunday qilib, talabalarni media vositalari orqali samarali o'qitish, mediareсурslar vositasida mustaqil ta'lim jarayonini samarali tashkil etish va talabalar mustaqil tayyorgarligini rivojlantirishda ta'limiy mediareсурsni to'g'ri tanlash hamda muvaffaqiyatli yaratishga har tomonlama bog'liq. K.Ushinskiy, S.Rubinshteyn, A.Losevlarning fikricha, faol ijodiy faoliyat jarayonidagina shaxsning subyekt sifatida shakllanishiga erishish mumkin [2]. Biz taklif etayotgan mustaqil ta'lim jarayoni ham har bir talabaning mustaqil tayyorgarligini rivojlantiradigan sharoitlarni yaratishga qaratilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida” gi PF-5847 son Farmoni. www.lex.uz
2. Райцев А.В. Концептуальный анализ результатов исследования индивидуальности человека в процессе профессиональной подготовки специалиста // Известия РГПУ им. А.И. Герцена. 2003. № 6
3. Umarova Z.A. Effectiveness of organizing students' self-education with the facilities of media resources in educational media environment // Revista geintec-gestao inovacao e tecnologias 11 (2), 2021. P. 756-764
4. Muslimov N.A., Umarova Z.A. The role of media resources in the process of self-education // International Journal Papier Public Review 2 (1), 2021. P. 49-53



СЕМАНТИЧЕСКИЙ АСПЕКТ ИЗУЧЕНИЯ ИМЁН СУЩЕСТВИТЕЛЬНЫХ В ОБУЧЕНИИ РУССКОМУ ЯЗЫКУ КАК НЕРОДНОМУ.

Ягафарова Назилия Рафаиловна

Преподаватель Янгиерского филиала Ташкентского
химико-технологического института

+998911000072

Privett075@gmail.com

Аннотация: В статье рассматриваются особенности изучения существительных функционально и семантически в контексте обучения учащихся русскому языку как родному. При усвоении родовых, числовых и падежных категорий существительных учащиеся сталкиваются с трудностями из-за различий в грамматическом строе русского (изучаемого) и родного (узбекского) языков. Знакомство с функциональными свойствами имен существительных (особенно с функциями текстообразования) целесообразно параллельно с усвоением лексико-грамматических свойств имен существительных.

Ключевые слова: русский язык как неродной, имя существительное, лингвометодика, функционально-семантический.

В современной лингвистической методике одним из наиболее актуальных вопросов, связанных с обучением узбекских школьников русскому языку как родному, является функционально-семантическое изучение имен существительных. При усвоении родовых, числовых и падежных категорий существительных учащиеся сталкиваются с трудностями из-за различий в грамматическом строе русского (изучаемого) и родного (узбекского) языков. Мы считаем целесообразным знакомиться с функциональными свойствами имен существительных (в частности, функциями композиции текста) параллельно с усвоением лексико-грамматических особенностей имен существительных.

Существительные отличаются от других частей речи частотностью, распространением и богатым лексическим содержанием. Кроме того, они могут быть заменены местоимениями в контексте. Как в языкознании, так и в методологии языка остается актуальным вопрос о рассмотрении имен существительных с точки зрения их текстовой функции. В связи с этим при обучении русскому языку целесообразно опираться на функциональный подход, включающий учет функциональных особенностей грамматических единиц в структуре текста.

Имена существительные составляют почти половину словарного запаса русского языка, они имеют богатую систему грамматических категорий. Например, установлено, что использование имен существительных обеспечивает детализацию художественного описания и позволяет наглядно и образно выразить образ, персонаж, место действия. Кроме того, существительные являются основой изобразительно-выразительных средств. Имена мужского и женского рода используются во многих поэтических текстах как средство олицетворения. Знакомство с системой частей речи начинается с них, с самой объемной, употребительной и общеупотребительной части речи. Осознание лексико-грамматических свойств существительных начинается с того, что у учащихся должно сложиться представление о том, что в русском языке существительные имеют общетехническое значение. С первых же уроков изучения существительных учащиеся должны осознать, что «одной из наиболее отличительных черт существительного является его способность выражать предметность посредством грамматических и словообразовательных средств».

У учащихся нередко формируется узкое, ограниченное восприятие обобщенного понятия «название предмета», они обычно отождествляют его с понятием вещи или предмета в быту, не учитывая, что существительные могут обозначать и отвлеченные понятия. Наиболее характерный морфологический признак имен существительных функционально-семантической стороной изучения имен существительных на уроках русского языка как не носителя русского языка является грамматическая категория рода. Родовая категория вызывает много затруднений у студентов (узбеков), которые обусловлены особенностями грамматического строя родного языка учащихся: в узбекском языке, как и в других тюркских языках, родовая категория отсутствует. Незнанием рода существительных объясняются



ошибки, допускаемые многими учащимися при согласовании прилагательных, порядковых числительных, некоторых категорий местоимений, а также глаголов прошедшего времени. Родовые различия в этих частях речи, в отличие от существительных, являются синтаксической формой согласования, поскольку подчинены роду существительного, с которым они употребляются. При этом существительное занимает главенствующее положение: родовой признак прилагательного, числа, местоимения и т. д. зависит от его родового признака. Однако сложность овладения родом обусловлена не только особенностями родного языка учащихся, но и сложностью выражения самой категории рода существительного в русском языке.

В русском языке родовые различия существительных выражаются 1) лексическим способом: мать – отец; бабушка – дедушка; петух – курица; 2) словообразовательными аффиксами: ученик – ученица; лев – львица; спортсмен – спортсменка; 3) морфологическим способом: мальчик, трамвай, дом, земля, тетрадь, окно, море, время; синтаксически: большая умница – большой умница и др. На практике часто для тренировки употребляются отдельные существительные и у учащихся не формируется понятие о том, что имя существительное выступает как стержневое слово по взаимоотношению к другим словам (частями речи), которые с ним согласовываются. С категорией рода в русском языке тесно связана категория одушевлённости/неодушевлённости. В русском языке смыслового разграничения одушевлённости/неодушевлённости недостаточно, поэтому при определении одушевлённости ведущим становится грамматический признак: одушевлённых существительных во множественном числе (а существительных мужского рода в единственном числе) форма винительного падежа совпадает с формой родительного, а у неодушевлённых с формой именительного падежа. Понимание этой закономерности учащимися позволит избежать ошибок типа «вижу брат» вместо вижу брата; «вижу сестра» вместо вижу сестру. Так, отсутствие категории рода, специфика в выражении одушевлённости/неодушевлённости на родном языке может быть причиной интерферентных ошибок в обучении русскому языку как неродному. Наличие большого количества значений и различных форм выражения падежей также вызывает затруднения у учащихся. С некоторыми трудностями они овладевают предложными конструкциями, поскольку, например, в родном (узбекском) языке учащихся нет предлогов, а их значение передаётся разными средствами.

Категория числа в русском языке также характеризуется специфическими особенностями значения и употребления форм единственного и множественного числа имен существительных. Знакомство с функциональными характеристиками имен существительных рекомендуется осуществлять параллельно с усвоением лексико-грамматических признаков. Уже на первых уроках по изучению имен существительных целесообразно показать особенности употребления имен существительных в тексте, ввести понятие «текстообразующая функция», под которой понимается «способность единиц языка участвовать в создании текста, их способность «строить» текст, связывать воедино все его части и отдельные предложения с учетом коммуникативного намерения, цельного смысла, общего замысла – всех факторов, обуславливающих его создание или интерпретацию»

Имя существительное обозначает предмет, может быть собственным и нарицательным, одушевленным и неодушевленным, принадлежит к одному какому-то роду, изменяется по падежам и числам, в предложении может выполнять синтаксические функции всех членов предложения. Однако при этом не имеют понятия о том, какую важную текстообразующую функцию существительные выполняют. На конкретных текстах можно показать, как имена существительные могут выступать средством межфразовой связи в качестве лексического повтора, синонимической замены и др. Изучение имен существительных, как и других грамматических единиц, на уровне отдельных слов, словосочетаний и предложений не обеспечивает полного описания их функциональных свойств. Создавая собственные высказывания, учащиеся не всегда ясно представляют себе, что значит правильно, целесообразно использовать имена существительные, каково их «поведение» в тексте в зависимости от типа, стиля речи и жанрового своеобразия.

Вышесказанное можно отметить, что в процессе овладения вторым (неродным) языком учащиеся наряду с лексико-грамматическими особенностями имен существительных должны усвоить и их функциональные признаки, то есть текстообразующие функции.



Это будет способствовать пониманию и осознанию того, какую важнейшую роль имена существительные выполняют в различных текстах.

Библиографический список

1. Алексеева, О.В. Функциональный принцип изучения морфологии в школьном курсе русского языка. – М.: Изд-во МГОУ, 2010. – 186 с.
2. Бабайцева, В.В. Местоимение это и его функциональные омонимы. – М.: ФЛИНТА, 2014. – 168 с.
3. Бахтин, М.М. Проблема текста в лингвистике, филологии и других гуманитарных науках. Опыт философского анализа // Эстетика словесного творчества. – М., 1979. – С. 281–308.
4. Болотнова, Н.С. Текстовая деятельность на уроках русской словесности: методики лингвистического анализа художественного текста: методическое пособие.– Томск: UFO-Press, 2002. – 64 с.
5. Величко, Л.И. Работа над текстом при изучении русского языка: пособие для учителя. – М.: Просвещение, 1983. – 128 с.
6. Еремеева, А.П. Роль образцового художественного текста в обучении связной речи. Русская словесность. – 1999. – № 4. – С. 72–76.



CHAQIRUVGA QADAR BOSHLANG‘ICH TAYYORGARLIK DARSİ JARAYONIDA O‘QUVCHILARNI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBİYALASH XUSUSIYATLARI

Abdumalikov Mirzo Mahmud o‘g‘li
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika
universiteti 2-bosqich magistranti.
+998914194656
mirzo@bk.ru

Anatatsiya: Harbiy vatanparvarlik tarbiyasi haqidagi bilimlar bilan qurollantirish va harbiy-vatanparvarlik tarbiyasining maqsadi, metodologik asoslari, mazmun-mohiyati, vazifalari, vositalari, pedagogik, psixologik asoslari, harbiy vatanparvarlik tarbiyasi tizimi va uning asosiy yo‘nalishlari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: odob, axloq, tarbiya, zero, lozim

Vatanparvarlik tarbiyasining xalqimiz uchun ahamiyati shundaki, xalqning tinchlik, xavfsizlikda hayot kechirishi, yaratuvchilik, bunyodkorlik mehnati bilan shug‘ullanishi, turmush darajasini, uning farovonligini oshirish, yurtni obod qilish yo‘nalishidagi barcha faoliyat xalqimizning vatanparvarlik xislatlariga bog‘liq bo‘lib, shu xislatlarning amaliy ifodasi hisoblanadi.

Bundan vatanparvarlikning qanchalik muhim ahamiyatga ega ekanligi ko‘rinib turibdi. Bu masalaga qadimdan e‘tibor berib kelinganligini “Vatanni sevmok iymondandir” degan mashhur hadis ham tasdiqlab turibdi. Bu hadisda “Vatanni sevmok” iborasi “vatanparvarlik” ma‘nosi bilan tengligini hisobga olsak, “Vatanparvarlik iymondandir” degan ma‘no bilinadi. Bundan esa vatanparvarlik iymon, e‘tiqod ekanligi ma‘lum bo‘ladi. Har bir xalq hayotining ravnaqi, eng avvalo, o‘sha xalq fuqarolarining qanchalik vatanparvar ekanliklari va yosh avlodga qanchalik vatanparvarlik ta‘lim-tarbiyasi berishlari bilan bog‘liq.

Davlatning mustahkamligi, kuch-kudrati, uning dunyo davlatlari orasidagi nufuzi shu davlatdagi barcha rahbar va xodimlar, mutaxassislarining bilimdonligi, o‘z vazifalarini puxta bajarishlari, unumli mehnat qilishlariga erishish yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga asoslanadi. Bu esa vatanparvarlik tarbiyasining davlatimiz uchun ahamiyatini bildiradi. Davlatni mustahkamlash, uni har tomonlama taraqqiy ettirishda vatanparvarlik tarbiyasining ahamiyati to‘g‘risida Prezidentimiz Sh.Mirziyoev: “Barchamizga yaxshi ma‘lumki, vatanparvarlik har bir davlat hayotining ma‘naviy asosi hisoblanadi va jamiyatni har tomonlama rivojlantirish borasida eng **muhim safarbar etuvchi kuch sifatida namoyon bo‘ladi**”, deb alohida ta‘kidlaydi.

Vatanparvarlik tarbiyasi tizimining umumiy xususiyatlari

O‘tib kelayotgan yosh avlodning ta‘lim-tarbiyasi, shu jumladan, ularning vatanparvarlik tarbiyasi Vatanimiz, xalqimiz kelajagini, el-yurtimiz taqdirini hal qiluvchi masala hisoblanadi. Bu masalaning qanchalik jiddiy ahamiyatga ega ekanligi to‘g‘risida Abdulla Avloniyning quyidagi fikrlarini keltirish mumkin:

“Hukamolardan biri: “har bir millatning saodati, davlatlarning tinch va rohati yoshlarning yaxshi tarbiyasiga bog‘liqdur”, demish”. “Alhosi, tarbiya bizlar uchun yo hayot yo mamot, yo najot yo halokat, yo saodat yo falokat masalasidir”. “Bolalarini pisand qilmagan millatlar inqirozi ularni yot qullarga va yot madaniyatlar ixtiyoriga berib qo‘yganlari sababliki, ulardan ayrilishga mahkumdirlar”.

Bunda bolalarning kelajak egalari ekanligini hisobga olgan holda ularning ta‘lim-tarbiyasiga e‘tiborsizlik millatning inqiroziga olib kelishi ta‘kidlanmoqda. Zero, biz Vatanimiz kelajagini o‘z bolalarimiz orqali yaratamiz. Vatanimiz kelajagining qanday bo‘lishida esa hozirgi vatanparvarlik tarbiyasi alohida o‘rin egallaydi. Bu yo‘lda hozirda muayyan ishlar amalga oshirib borilmoqda.

Vatanparvarlik tarbiyasi umumiy ta‘lim-tarbiyaning tarkibiy qismi bo‘lishi bilan birga o‘z pedagogik, psixologik asoslariga va metodikasiga ega. Lekin hozirgacha ushbu asoslar va metodikaning ilmiy-nazariy jihatlarini yetarlicha o‘rganilmagan. Vatanparvarlik tarbiyasi inson hayotining hamma sohasida amal qiladi, bu degani Vatanni asrab avaylash, uning farovonligi va gullab-yashnashi yo‘lida hamma sohalarida amalga oshiriladigan ishlar vatanparvarlik tarbiyasiga asoslanadi. Chunki insoniyat tarixidan ma‘lumki, hamma zamonlarda ham har bir davlatning rivojlanishi, kuch-qudratli va boshqalar tomonidan tan olinadigan bo‘lishi, u yerdagi xalqning farovon hayoti o‘sha xalqning vatanparvarlik xislatlari qanchalik yuqori ekanligiga bog‘liq.



Vatanparvarlik tarbiyasi ahamiyati jihatidan shaxs umumiy ta'lim-tarbiyasining pirovard natijasini ifodalaydi. Shunga muvofiq ravishda bu sohadagi ishlarimizni ushbu yo'nalishdagi mavjud tajribalar, erishilgan ijobiy natijalarni hisobga olgan holda muntazam rivojlantirib, faollashtirib borish masalasi davr talabi sanaladi. Bu ishlarni ilmiy asosda ishlab chiqilgan va oila, mahalla, ta'lim muassasalari, davlat va nodavlat tashkilotlarining ijtimoiy sheriklik faoliyatiga asoslangan vatanparvarlik tarbiyasi tizimi orqali muntazam ravishda amalga oshirib borish lozim. Vatanparvarlik tarbiyasining tegishli ilmiy tahlillar natijalariga asoslangan bunday tizimi hali ishlab chiqilmagan.

Shu munosabat bilan bunday tizimning tarkibiy tuzilishi hamda ayrim asosiy jihatlari to'g'risida mavjud ish tajribalari va kuzatishlar asosida fikr yuritish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga qo'ramiz. Mazkur kitobda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2016 yil 1 noyabrdan 24 noyabrga qadar Qorakalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri saylovchilari vakillari bilan o'tkazilgan saylovoldi uchrashuvlarida so'zlagan nutqlari o'rin olgan. Toshkent: O'zbekiston, 2017.
2. O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining umumharbiy Nizomlari. Toshkent: O'zbekiston, 1996.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori "O'zbekiston Respublikasi oliy harbiy ta'lim muassasalariga tanlash tartibi va qabul qilish qoidalari to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida», 2014 yil 3 iyun.
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014 yil 18 dekabrda 348-son qarori bilan tasdiqlangan "Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlikni tashkil etish va uni amalga oshirish tartibi to'g'risida"gi Nizom.
5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 23 fevralda 140-sonli qarori bilan tasdiqlangan Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash konsepsiyasi.



O'QUVCHILARGA TEXNOLOGIYA FANIDA KIYIMLARNI LOYIHALASH VA MODELLASHTIRISH KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA DASTURIY VOSITALARNING DIDAKTIK IMKONIYATLARI.

Umarova Fotima Abduraximovna,
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat
pedagogika universiteti “Texnologik ta’lim
metodikasi” kafedrası dotsent v.b, Phd.

Annotatsiya: Mazkur maqolada maktab o‘quvchilarini texnologiya fanida zamonaviy usullar orqali loyixalash va modellashtirish ko‘nikmalarini shakllantirish tahlil qilingan hamda o‘quv jarayonini sifatini oshirish, xususan ta’lim oluvchilarning shaxsiy fazilatlarini rivojlantirish yo‘llari ochib berilgan. Elektron ta’lim resurslaridan foydalangan holda o‘quv jarayonini tashkil etish o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini, ijodkorlik va texnik ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi, shuningdek ularning bilim va ko‘nikmalarini oshiradi.

KALIT SO‘ZLAR: multimedia, elektron darslik, mobil dastur, mediaresurs.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 sentabrdagi “Xalq ta’limi tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish choratadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3931-sonli qarori bilan tasdiqlangan “2018-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturi”ning II bo‘lim, 11-bandida – umumiy o‘rta ta’limning yangi davlat ta’lim standartlari va o‘quv dasturlarini takomillashtirish va shu bilan birga STEM (fan, texnologiya, muhandislik va matematika) ta’limini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish belgilab berilgan. Mazkur vazifalarni bajarish uchun, avvalo, ta’lim ishtirokchilari – pedagoglar, metodistlar, o‘quvchilar, ota-onalar va boshqalar STEM ta’limi yo‘nalishida o‘tkaziladigan xalqaro tadqiqotlar haqida ma’lumotlarni bilishi hamda ularni amaliyotda qo‘llash uchun malakalarga ega bo‘lishlari zarur bo‘ladi.

Hozirgi vaqtda texnologik inqilob barcha sohada o‘z kuchini ko‘rsatmoqda. Yuqori texnologiyali mahsulotlarni ishlab chiqarishda texnologik jarayonlarni avtomatlashtirilgan tizim orqali tashkil qilish orqali vaqtni, xom ashyoni, ishchi kuchini va unga sarflanayotgan mablag‘larni iqtisod qilish imkonini beradi. Shu bilan bir qatorda yaratilayotgan maxsulotni foydalanish muddatini qisqartirish bilan yangi maxsulotlarni yaratish va turlarini ko‘paytirishga olib keladi.

STEM ta’limiy yondashuvi o‘quvchilarga dunyoni tizimli ravishda o‘rganishga, atrofda ro‘y berayotgan jarayonlarni mantiqiy mushohada qilishga, ulardagi o‘zaro aloqani anglab yetishga, o‘zi uchun yangi, noodatiy va qiziqarli narsalarni ochishga imkon beradi. Qandaydir yangilikni kutish orqali o‘quvchida qiziquvchanlikni rivojlantiradi. O‘zi uchun qiziqarli masalani aniqlab olishni, uning yechimini topishning algoritmini ishlab chiqishni, natijalarini tanqidiy baholashni, fikrlashni muhandislik stilini shakllantirishga olib keladi. Jamoaviy faoliyat olib borish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Bularning barchasi o‘quvchi rivojlanishining yuqori bosqichga ko‘tarilishini va kelajakda to‘g‘ri kasb tanlashga zamin yaratadi. STEM ta’limiy yondashuvi – o‘quvchilarga dunyoni tizimli ravishda o‘rganishga, atrofda ro‘y berayotgan jarayonlarni mantiqiy mushohada qilishga, ulardagi o‘zaro aloqani anglab yetishga, o‘zi uchun yangi, noodatiy va qiziqarli narsalarni ochishga imkon beradi.

Foydaanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. F.A.Umarova “Dizayner-modelyerlarni tayyorlashda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiya vositalaridan foydalanish.” The Journal Central Asian Social Studies – Volume 1, Issue 1, 2020 yil.

2. F.A.Umarova “Advantages of using electronic learning resources in the educational process” European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol. 8 No. 8, 2020 ISSN 2056-5852 pp. 31-36



JAMIYATDA FAOL HUQUQIY XULQ-ATVORNI RIVOJLANTIRISH.

G'aybullayev G'olib G'ayrat o'g'li

Bux DPI Harbiy ta'lim fakulteti
4-bosqich talabasi. Tel. (91) 244-75-53.
gaybullayevgolib010@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada axborot-kommunikatsiya texnologiyalardan foydalanib huquqiy xulq-atvorni rivojlantirish haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: ong, madaniyat, xulq, huquq, korrupsiya, huquqbuzarlik, davlat, huquqiy immunitet, huquqiy ta'lim, internet portal.

Huquq ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish vositasi sifatida kishilarning xatti-harakati va xulq-atvoriga ta'sir etadi. Yuridik adabiyotlarda asosiy diqqat e'tibor kishilar xulq-atvorining huquqqa qarshi jihatiga, ya'ni huquqbuzarlikka qaratilib, huquqiy harakatlar xususida kamroq fikr bildiriladi. Huquqiy xatti-harakat deganda, huquq sub'ektlarining qonunga mos holda ijtimoiy-foydali harakat yoki harakasizlik qilishi tushuniladi. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach respublikada xalq hokimiyatligi prinsipini Konstitutsiya asosida mustahkamladi. Bu esa jamiyatda shaxs erkinligini amalga oshirish uchun imkoniyatlarni yaratdi.

Kishilarni harakatga keltiruvchi kuch hamda ularning alohida xulqini yo'lga soluvchi omil-manfaat. Shaxs ijtimoiy munosabatlar mahsuli bo'lib, ushbu munosabatlar jamoalarda vujudga keladi va ularning manfaati asosan jamiyat manfaati bilan belgilanadi. Fuqarolarning qonuniy manfaati bu uning moddiy va ma'naviy talabi bo'lib, u shaxsning qobiliyatini va uning butun jamiyatdagi faoliyatini rivojlantirish orqali belgilanadi.

Jamiyat manfaati esa jamiyatning maqsadi va vazifasi bo'lib, uning rivojlanishi uchun xizmat qiladi. Har bir fuqaro qonunda ko'rsatilgan yoshga kirishi bilan barcha huquqlardan, erkinliklardan foydalanishi imkoniyatiga va qonunda ko'rsatilgan majburiyatlarini bajarish majburiyatiga ega bo'ladi. Albatta xulq-atvor bolalikdan tarbiya orqali shakllanadi. Tarbiya insonni axloqiy fazilatlarini ko'rsatib beruvchi tushunchadir.

Tarbiya ma'naviy, axloqiy, g'oyaviy, iqtisodiy, huquqiy bo'lishi mumkin. Ular orasida huquqiy tarbiya alohida ahamiyatga molik. U inson tomonidan o'zlashtirilgan huquqiy bilimlar asosida huquqiy faoliyatni tashkillashtirish borasidagi malaka va ko'nikmalarni hosil qilish, unda ijobiy mazmundagi huquqiy sifatlarni paydo qilish va insonning ongu tafakkurini boyitadigan hamda huquqiy madaniyatni shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon hisoblanadi.

Huquqiy xatti-harakatning shaxsni huquqiy tartibga solishga jalb etilish darajasiga ko'ra to'rt turi mavjud:

1. Faol huquqiy xatti-harakat. Bu fuqarolar, mansabdor shaxslarning qo'shimcha vaqtlari, imkoniyatlari, shuningdek, moddiy vositalaridan kelib chiqib, o'z tashabbuskorligiga tayangan huquqiy faoliyatidir.

2. Odatdagi huquqiy xatti-harakat. U faollikdan farq qilgan holda, ortiqcha xarajat va harakat bilan bog'liq bo'lmaydi. Bu kishining muntazam xizmat va boshqa hayotiy faoliyatidan kelib chiqadi va u, asosan, huquqiy normalar talabiga mos keladi.

3. Konformistik (sust) huquqiy xatti-harakat. Fuqarolar o'rnatilgan huquq normalariga ijtimoiy muhit ta'sirida, ya'ni o'z safdoshlarining, rahbarlarining ko'zicha rioya qiladi. Bu o'zining mustaqil fikri bilan emas, balki hamma shu harakatni amalga oshirganligi uchun u ham shuni qilishga majbur bo'ladi.

